

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOG'INI KREDITLASHDA DAVLATNING TARTIBGA SOLISH VA QO'LLAB- QUVVATLASH MEXANIZMI

Z.S. Shoxo'jaeva

i.f.n., prof. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi katta ilmiy xodimi

shoxujaeva@mail.ru

A.X.Axmadaliev

Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida strategik rivojlanish va tadqiqotlar xalqaro markazi bosh hisobchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini moliyaviy qo'llab quvvatlashda kredit tizimining roli haqida va kredit tizimini tartibga solishning davlat va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga bag'ishlangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Bank-moliya tizimi, iqtisod-moliya sohasi, tijorat banklari, qo'llab-quvvatlovchi institutlar tizimi, kredit tizimi, iqtisodiy o'sish, modernizatsiya, innovatsion rivojlanish, o'z-o'zini tartibga solish bozor mexanizmi.

Kirish: Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy va kredit jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirilishiga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Hozirgi davrning rivojlanish talabi moliyaviy imkoniyatlarni bilish bilan bir qatorda ulardan samarali foydalanishi ham talab qiladi. Shuningdek bank-moliya tizimi bozor munosabatlariga mos rivishda tashkil etish hamda iqtisod-moliya sohasi bo'yicha mutaxassislarini tayyorlashga alohida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 15 dekabrda "Meva-sabzavotchilik sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, tarmoqda klaster va kooperatsiya tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-52-son qarori hamda 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni birinchi ilovasi 30-maqсадida belgilangan vazifalarni amalga oshirish qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtiruvchi xo'jalik sub'ektlarining oldida turgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, xo'jaliklarda meva va sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayonida vujudga kelgan moliyaviy masalalar, imtiyozli kreditlardan foydalanish darajasi, kreditlarni olishdagi va uni qaytarishdagi muammolar, mahsulotlarni yig'ib-terib olish hamda yetkazishdagi muammolar hamda suvtejoychi texnologiyalardan foydalanish darajasi kabi masalalarda hududlardagi banklar faoliyati bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

Banklar oldiga belgilab berilgan ustuvor vazifalardan asosiysi ham banklarning barqarorligini va kapitallashuv darajasini yanada oshirish, yetakchi xalqaro reyting kompaniyalari tomonidan qabul qilingan xalqaro meyorlar, mezon va standartlarga asoslangan holda, bank tizimini baholash ko'rsatkichlarining zamonaviy tizimini joriy etish belgilangan edi.

Metodlar: Tadqiqot jarayonida qiyosiy taqqoslash, mantiqiy va abstrakt fikrlash usullaridan foydalanildi.

Natijalar: Qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish salohiyatini tiklash, uning iqtisodiy va texnologik qoloqligini bartaraf etishning umumiy sharti. texnik modernizatsiya va innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish sohaga investitsiyalarni jalb etishdan iborat bo'lib, moliyalashtirish jarayoni ko'pchilik qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun o'z mablag'lari yetishmasligi sababli qiyin kechmoqda.

Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida tashqi, birinchi navbatda qaytariladigan moliyalashtirish manbalarining roli sezilarli darajada oshmoqda.

Milliy moliya tizimining bir qismi sifatida qishloq xo'jaligini kreditlash tizimi eng muhim o'ziga xos soha bo'lib, uning faoliyati vaqtincha bo'sh mablag'larning to'planishini ta'minlaydi va mahsulotlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilishning turli bosqichlarida pul fondlarini shakllantirishda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining ehtiyojlariga muvofiq ularni qayta taqsimlashni talab etadi.

Qishloq xo'jaligi sohasi bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qishloq aholisini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus institutlarning faoliyat yuritishning o'ziga xos mexanizmlarini mustaqil ravishda ta'minlashi zarur. Har bir mamlakat o'ziga xos qo'llab-quvvatlovchi institutlar tizimini yaratadi, ularning asosiy xususiyatlari, ayniqsa, ular shakllanishining dastlabki bosqichlarida davlat ishtirokining yuqori darajada ekanligi bilan izohlaydi.

Iqtisodiyotning agrar tarmog'i rivojlanishi ko'p jihatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy-iqtisodiy ahvolidan bog'liq. Biroq, aksariyat agrar xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda nafaqat kengaytirilgan, balki oddiy takror ishlab chiqarishning ichki va tashqi moliyalashtirish manbalari mavjud emasligi qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini davlat tomonidan tartibga solishga bo'lgan ehtiyojni va rolini oshiradi.

Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini davlat tomonidan tartibga solish uning muhim funksiyalarini amaliy jihatdan amalga oshirish uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan murakkab jarayon bolib quyidalarni o'z ichiga oladi:

- tizimning barqarorligini ta'minlash;
- qarz oluvchilarni to'lov qobiliyati;
- qishloq xo'jaligini rivojlantirishni rag'batlantirish.

Kredit tizimining barqaror rivojlanishi davlatning zarur ishlab chiqarish quvvatlarini (qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rentabelligi, ishlab chiqarish vositalarining mavjudligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, tashish va saqlash tizimining mavjudligi, bozorda to'lovga layoqatli talabning mavjudligi) yaratishdagi ishtiroki bilan chambarchas bog'liq va moliyaviy (kredit tashkilotlariga kirish, riskni baholash uchun ma'lumotlarning mavjudligi, kredit berish bo'yicha qaror qabul qilish erkinligi, kredit kapitalining sifatli va yetarli miqdori, qarz oluvchining kreditga layoqatlilikini baholashning samarali usullari, majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash mexanizmi) qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kredit bilan qo'llab-quvvatlashning samarali shakllari faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratildi.

Masalan, Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanidagi 30 ta tadbirkorga 5683.6 mln so'm shundan 3948.4 mln AQSh dollorda, 1735.2 mln so'mda kredit ajratilib, loyiha to'liq moliyalashtirilgan.

Bundan tashqari Mirishkor tumanida "Bir hudud bir mahsulot" tamoyili asosida tashkil etilgan 30 gektar maydonda 1 gektardan 30 ta tadbirkor tomonidan tashkil etilgan loyihalar o'rganib chiqildi.

Tadqiqotlar ko'rsatishicha, 2022 yil qish mavsumi anomal sovuq bo'lganligi uchun limon ko'chatlarni sovuq urgan, shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Issiqxona xo'jaliklari faoliyati samaradorligini oshirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-413 sonli qarorga asosan tadbirkorlar bank tomonidan ajratilgan kreditlar muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirib berilgan.

Hozirgi kunda issiqxonalarda 18 gektar maydonda pomidor, bodiring va bulg'or qalampir yetishtirilib 1520 ming tonna hosil olingan. Yetishtirilgan mahsulotlar, jumladan bulg'or qalampiri Qozog'iston davlatiga eksport qilingan.

Mirishkor tumanidagi Issiqxonada limonchilikka ixtisoslashgan "Sardor limon JUICE" tomonidan 2020 yilda Xalqaro Moliya tashkilotlari kredit mablag'lari hisobidan Turon bank tomonidan 155,8 ming AQSh dollari miqdorida 17 foiz bilan kredit mablag'lari hisobiga limon yetishtirish yo'lga qo'yilgan.

Tahlillar ko'rsatishicha 2022 yilning qish mavsumida kuzatilgan anomal sovuq sababli limon ko'chatlarini sovuq o'rgan. 2023 yilda issiqxonada bodring mahsulotlari yetishtirish yo'lga qo'yilgan. Korxonalar rahbari bilan bo'lgan suhbatda kredit mablag'larini qaytarish muddati tugamaganligini, issiqxonada qaytadan limon ko'chatlari ekish va issiqxonani ta'mirlash ishlariga qo'shimcha 200 mln. so'm bir yil muddatga aylanma mablag'ni shakllantirish uchun kredit mablag'lariga ehtiyoji borligi aniqlandi.


Qashqadaryo viloyati tumanlarida 2022-2023 yillarda XMI mablag'lari hisobiga qiymati 64,0 mln doll bo'lgan (shundan xorijiy kredit 47,5 mln doll) 58 ta loyihalar amalga oshirilgan, natijada 1271 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi.

Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumanida 2023 yil yanvar-avgust oylarida qiymati 13,3 mln doll bo'lgan (shundan xorijiy krediti 8,4 mln doll) 11 ta loyihalar amalga oshirilib, 330 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

Yaratiladigan quvvat, 210 ga maydonda intensiv bog' va 2,2 ming tn muzlatgichli omborxonalar hamda 5 ming tn meva-sabzavotni qayta ishlash quvvatlari yaratildi.

2023 yil yakunigacha qiymati 20,6 mln doll (shundan xorijiy kredit 13,8 mln AQSh doll) 15 ta loyihalar amalga oshiriladi va 356 ta yangi ish o'rinlari yaratiladi. Shuningdek, 2024 yilda qiymati 30,0 mln doll (shundan xorijiy kredit 25,4 mln AQSh doll) 32 ta loyihalar amalga oshiriladi va 585 ta yangi ish o'rinlari yaratilishi prognoz qilindi.

Tadqiqotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatining o'rganilayotgan tumanlaridagi fermer xo'jaliklari intensiv bog' yaratish, tomchilatib sug'orish texnologiyalarini joriy etish, issiqxona qurish, meva sabzavot saqlanadigan omborxonalar qurish va muzlatgichlar sotib olish, urug'lik yetishtirish va quduq qazish uchun kreditga bo'lgan ehtiyojlari borligi aniqlandi (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyati tumanlarida fermer xo'jaliklarining kreditga bo'lgan talabi

Jumladan:

Yakkabog' tumanidagi tadqiqot olib borilgan fermer xo'jaliklarining 30 foizi asosan intensiv bog' yaratish, 20 %i tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish va 25 %i meva-sabzavot saqlanadigan muzlatgichlarni sotib olish uchun kredit kerakligini aytishgan;

Shahrisabz tumanidagi fermer xo'jaliklarining 25%i tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish, 35 %i esa meva-sabzavot saqlanadigan muzlatgichlarni sotib olish uchun kreditga ehtiyoji borligi aniqlandi;

Kitob tumanida so'rovnoma olib borilgan fermer xo'jaliklarida ham 30 %i intensiv bog' va 50%i tomchilatib sug'orish tizimini joriy etish hamda 30 %i meva-sabzavot saqlanadigan muzlatgichlarni sotib olish uchun kreditsha ehtiyoji borligi aniqlangan.

Viloyat tumanlari fermer xo'jaliklari bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar natijasidan ko'rinadiki, xo'jaliklar asosan intensiv bog' yaratish uchun va tomchilatib sug'orish tizimini joriy qilish hamda meva-sabzavot saqlanadigan muzlatgichlarni sotib olish uchun kredit zarrurligini ta'kidlashgan.

Qishloq xo'jaligida kredit tizimini davlat tomonidan tartibga solish uning rivojlanish dinamikasiga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi. Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligining

potensial qarz oluvchilarni qamrab olish ko'rsatkichi davlat ta'sirining shakllari va usullarini tanlashda ko'rsatma bo'lib xizmat qiladi, ularning samaradorligi kredit operatsiyalari sonining ko'p marta ko'payishini ta'minlaydigan shart-sharoitlarni yaratish, kredit operatsiyalari sonining multiplikativ o'sishini va individual kredit bitimining har ikki tomoni uchun qiymatini oshirishni ta'minlash bilan tavsiflanadi. Agar kredit tizimi kredit operatsiyalarini kengaytirishga, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari qamrovini oshirishga qarab harakat qilsa, davlat tomonidan tartibga solish samarali bo'ladi, aks holda bitimlar nisbatan qisqaradi, kredit tizimi yopiladi va tanazzulga yuz tutadi.

Qishloq xo'jaligida kredit tizimining faoliyat ko'rsatishining sifat jihati uning yana bir funksiyasining namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lib, uni amalga oshirish davlat tomonidan tartibga solish jarayonida - tarmoq rivojlanishini rag'batlantirish qobiliyati ta'minlanadi.

Iqtisodiy o'sish va institutsional shakllar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik mexanizmi tarmoqning o'sish sur'ati asosan jismoniy va inson kapitalining to'planish intensivligi, shuningdek, mehnat unumdorligining o'sishi o'z navbatida, texnologiyalarni rivojlantirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan belgilanadi. Bu davlatdan qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining faoliyat yuritishi uchun raqobatbardosh shart-sharoitlarni yaratishni talab qiladi.


Bu jarayonlarning intensivligi qishloq xo'jaligida takror ishlab chiqarish jarayonini moliyalashtirishning mavjud tashqi manbalarini shakllantirish va faoliyat ko'rsatish mexanizmlariga bog'liqdir.

Asosiy e'tibor ma'lum bir qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun kredit qo'llab-quvvatlashning mumkin bo'lgan shakllarining potensial to'plamini va umuman tarmoqning rivojlanish salohiyatini aniqlaydigan umumiy kredit tizimining zarur tuzilmasini yaratishga imkon beradigan rasmiy qoidalarga qaratiladi.

Qishloq xo'jaligida kredit tizimini davlat tomonidan tartibga solish qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va ularning kreditorlari o'zlarining iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun o'zaro munosabatlarini yengillashtiradigan maxsus normalar, qoidalar, tartiblarni ishlab chiqishni taqozo etadi (2-rasm).

Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini tartibga solish jarayonining amaliy ifodasi davlat boshqaruvi sub'ektlarining kreditni qo'llab-quvvatlashning institutsional shakllarini shakllantirish jarayoniga qaratilgan harakatlari bo'lib, uning maqsadi moliyaviy-iqtisodiy muhit va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining xatti-harakatlariga muayyan xatti-harakatlar doirasini yuklash orqali ularning iqtisodiy manfaatlarini amalga oshirish shartdir.

Taklif etilayotgan model hudud qishloq xo'jaligida kredit tizimining turli elementlariga davlat ta'sirining o'ziga xos shakllari va usullarini shakllantirish jarayoni uchun asos sifatida ishlatilishi lozim. Ushbu modelning afzalligi shundaki, u qishloq xo'jaligidagi ichki kredit munosabatlari bo'yicha tizimning o'zida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning geteropolyar, heterojen manfaatlarining o'zaro ta'sirining uyg'unligini, shuningdek, qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishi doirasida tizimli xususiyatlarni amalga oshirishni, qishloq xo'jaligini va umuman iqtisodiyotni samarali rivojlantirish uchun asos yaratishni ta'minlaydi.



2-rasm. Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini davlat tomonidan tartibga solish modeli

Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari va qishloq aholisini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi.

Bu agrosanoat majmuasining asosiy tarmog'ining zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanish darajasi, ishlab chiqarishning tavakkalligi, yuqori kapital va energiya sarfi, past jozibadorligi kreditorlar va investorlar uchun qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining asosiy va aylanma mablag'larni moliyalashtirishning tashqi manbalaridan foydalanish imkoniyati cheklanganligi bilan bog'liqdir. Ushbu xususiyatlar tarmoq uchun samarali moliyaviy va kredit yordamini talab qiladi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kredit bilan qo'llab-quvvatlashning institutsional shakllari nafaqat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini (oziq-ovqat va qayta ishlash sanoati uchun xom ashyo) ishlab chiqarishni moliyalashtirishning qaytariladigan manbalarini ta'minlashi kerak. Shuningdek, korxonalarini qayta ishlab chiqarish jarayoni (oziq-ovqat xavfsizligi, hududlar ustidan ijtimoiy nazoratni saqlash, an'anaviy madaniyat, jamiyatning rekreatsion ehtiyojlarini qondirish uchun sharoitlar), tarmoqning ko'p funksiyaliligi va uni mamlakat iqtisodiyotining ustuvor tarmog'i sifatida tan olish huquqini beruvchi keng funksiyalar tizimidan kelib chiqadi.

Mamlakatda iqtisodiy qonunlarning amal qilishini hisobga olgan holda qishloq xo'jaligiga beriladigan kreditni davlat tomonidan tartibga solish ishlab chiqilgan bo'lib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish va tovarlarini takror ishlab chiqarish jarayonini moliyaviy ta'minlash uchun shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan davlat ta'sirining me'yoriy belgilangan vositalarining majmuaviy tuzilmasi yaxlit va ichki izchil to'plami orqali amalga oshirilishi belgilangan. (1-jadval).

1-jadval

Qishloq xo'jaligida kredit tizimini tartibga solishning davlat va bozor mexanizmi elementlari

Unsurlar	O'z-o'zini tartibga solish bozor mexanizmi	Davlatni tartibga solish mexanizmi
Maqsad	Foyda olish	Qishloq aholisi hayoti uchun moddiy va ijtimoiy sharoitlarni ta'minlaydigan moliyaviy-kredit munosabatlarini qo'llab-quvvatlash
Kreditorlar	Tijorat banklari	Davlat ko'magida tashkil etilgan ixtisoslashtirilgan moliya-kredit institutlari (ixtisoslashtirilgan banklar, kredit kooperativlari, mikromoliya tashkilotlari); tijorat banklari
Tartibga solish obyekti	Qishloq xo'jaligida ssuda kapitalining harakat shakllari	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini kredit bilan qo'llab-quvvatlashning institutsional shakllari
Qarz oluvchilarni to'lovlilik(qoplash) darajasi	Hududiy kreditorlarga yaqin bo'lgan xususiy tomorqa va agrar tarmoq tarkibiga kiruvchi qishloq xo'jaligi korxonalarini; qishloq xo'jaligi bo'lmagan boshqa qarz oluvchilar;	Qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining barcha toifalari, qishloq xo'jaligidan tashqari qishloqdagi tadbirkorlik sub'ektlari amalga oshiriladi
Resurslar	Moliya bozorining jalb qilingan depozitlari va mablag'lari, aholi omonatlari	Jalb qilingan mablag'lar, moliya bozori fondlari, byudjet mablag'lari
Tamoyil	Mablag'larni foydali joylashtirish, xavflarni minimallashtirish, foydaning o'sishini ta'minlash	Kreditlash chegaralarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi qarz oluvchilarning kredit resurslaridan to'liq foydalanishini ta'minlash
Kredit to'lanishini	Qarz oluvchining moliyaviy-	Moliyaviy tiklanish va qarzni qayta

ta'minlash	iqtisodiy holatiga qat'iy talablar, kredit kafolati	tuzish tartiblari, kafolat va sug'urta sxemalari
Foiz stavkasi	Kredit operatsiyalarining rentabellik ko'rsatkichlarini beradi	Kredit operatsiyalarining rentabelligini kamaytirmasdan, subsidiyalanadi va kredit mavjudligini ta'minlaydi
Kredit xavfi	7-bandning majburiyatlarini ta'minlash usullari tufayli u minimallashtiriladi	Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan kredit tizimining samarali infratuzilmasi faoliyati tufayli qisqaradi

Munozara. Qishloq xo'jaligini kreditlash tizimini davlat tomonidan tartibga solishning me'yoriy-huquqiy bazasi juda xilma-xil bo'lib, tarmoqni imtiyozli qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan tegishli qonunchilik bazasining barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Bu xususiyat, birinchi navbatda, kredit tizimining faoliyati barqarorligidan dalolat beradi, shu bilan birga, uni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari uning barcha funksiyalarini amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishi kerak, shu jumladan barqarorlikdan tashqari, kredit tizimining to'liq ishlashini va qarz oluvchilarni to'lov qobiliyatini ta'minlashi shart, bu esa qishloq xo'jaligini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5853-son Farmoni. 23.10.2019 y.
2. Ortiqov I. Agrar sohada innovatsiyaning ahamiyati. //O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent,2009. - №2. - B.29.
3. SZ Safoevna, MN Juraevna. Analysis of economic efficiency of the use of irrigated land in agriculture and factors on them. Journal of Contemporary Issues in Business and Government. 2021. Том 27, Номер 2, Страницы 4055-4061.
4. Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021. №2.
5. ZS Shoxo'jayeva. Efficient use of water resources in the agricultural sector. Monograph. T.: - 2012
6. ЗС Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.
7. Sagdullaevna TF, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna. Food provision of the population of the Republic of Uzbekistan in pandemy conditions: problems and solutions. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
8. Utkirovna MN, Shoxo'jaeva Zebo Safoevna Organizational and economic basis for the development of cotton and textile clusters. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal – 2021/2.
9. ZS Shoxo'jayeva, M Norqobilov Problems of rational use of water resources in agriculture of the Republic of Uzbekistan. - НАУКА И ТЕХНИКА. МИРОВЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ, 2020.

10. ЗС Шохужаева Зарубежный опыт в сельском хозяйстве по использованию водных ресурсов. - Economics, 2020.
11. SZ Safoevna, SM Mirjamilovich. Development of entrepreneurship and improvement of organizational and economic bases of its state regulation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021. №3, 1186-1193.
12. ZS Shoxo'jaeva, DO Boqieva. Ishlab chiqarish tarmoqlari samaradorligini oshirishda investitsiyalardan foydalanishning nazariy va iqtisodiy asoslari. International conferences on learning and teaching. 2022. №4, 513-519.